

Saytimiz: baxtiyor.uz

Telegramdagi kanalimiz: [@baxtiyoruz](https://t.me/baxtiyoruz)

SAYTIMIZ VA KANALIMIZ MEHMONI BO'LIB O'ZINGIZ IZLAGAN NARSANI TOPISHINGIZGA ISHONAMIZ.

“Alifbe”ni tugatdik...

(1-sinflar uchun)

Sahna sharlar va gullar bilan bayramona bezatilgan. Musiqa sadolari ostida sahnaga tadbir ishtirokchilarining ustози va uning ortidan jajji o'quvchilari tashrif buyurishadi.

O'qituvchi: Assalomu alaykum, hurmatli ota-onalar, mehri daryo ustozlar, qadrli mehmonlar! Xush kelibsiz!

(O'quvchilarga qarab).

Aziz bolajonlar, bugun sizlar uchun eng quvonchli kun. Chunki siz kitoblarning to'ng'ichi - «Alifbe»ni tugatib, «Savodxonlik bayrami»ni nishonlash uchun yig'ilib turibsiz. (Ularga qarata she'r aytadi).

-Bolajonlar, bugun siz,

Ilk dovondan oshasiz.

Barchangiz tirishqoqsiz,

O'qish uchun shoshasiz.

Men sizlarga ushbu kunda,

Baxtu omad tilayman.

Kamolingiz ko'rishlikni,

Yaratgandan so'rayman.

Barchangizga bilim berdim,

Orgatdim qora, oqni,

O'qish, yozish, sanashniyu

Nuqta, vergul, so'roqni.
Mana, bugun savodxonsiz,
Hech narsaning yo'q kami,
Qutlug' bo'lsin ushbu ayyom,
«Savodxonlik bayrami!».

(O'quvchilar ham dil so'zlarini she'r orqali ifoda etishadi).

Quyoshdek shula sochgan,

Bilimga keng yo'l ochgan.

Bizni erkalab quchgan,

Sizgadir ushbu kalom,

Hamma: Muallimam, assalom!

Uzun tunlar allalab,

Oq yuvibu oq tarab.

O'stirdingiz erkalab,

Sizgadir ushbu kalom,

Hamma:

Onajonlar, assalom!

Otajanlar, assalom!

-Kunday yorug' darsxona,

Biz —farzandmiz, siz — ona.

Bo'lib bizga parvona,

Dilda ardoqli kalom,

Hamma: Ona maktab, assalom!

-Dong taratib jahonga,

Erk bergan har insonga.

Qaytdik dinu iymonga,

Dilda ardoqli kalom,

Hamma: Mustaqil yurt, assalom!

(Vatan haqida qo'shiq kuylanadi).

O'qituvchi: Bolalar! Maktabga ilk bor qadam qo'yganingizda o'qishni, yozishni bilmas edingiz. «Alifbe»ni o'qib, savodingiz chiqdi. Bugun esa siz ushbu sevimli kitobingiz - «Alifbe» bilan xayrlashasiz.

-Aziz ota-onalar,

Shirin-shakar bolalar.

Bugun bayram, tantana,

Ham katta shodiyona.

Savodxonlik muborak,

Sizgadir ezgu tilak.

Bolalar:

Rahmat, sizga muallim,

Bizga berdingiz ta'lim.

O'qituvchi:

Bu bayram sababkori,

Bilimlar poydevori.

Ma'noli, shirin so'zi,

Qani, «Alifbe» o'zi?

«Alifbe»ni chaqirsak,

Olqishlab, qarsak chalsak.

Bolalar:

-«Alifbe»jon, kela qol,

Olqishlaymiz, quloq sol.

(Davraga «Alifbe» kitobini ko'tarib bir o'quvchi kirib keladi).

O'qituvchi:

Marhamat, Alifbejon,

Sengadir qutlug' kalom.

«Alifbe» *(barchaga ta'zim qiladi):*

-Assalomu alaykum,

Aziz ota-onalar,
Ham qadrdon bolalar,
Savodxonlik muborak,
Bayram, shodlik muborak!
Men - eng to'ng'ich kitobman,
«Alifbe»man, oftobman.

(o'quvchilarga qarata).

Savod chiqardingiz mendan,
So'rayin endi sizdan.

Alifboda harf nechta?

O'quvchilar: Jami 29 ta.

Unlilardir olti harf,

Undoshlardir qolgani.

«Alifbe»:

Balli, ey dili oqlar,

Bilimga xo'p chanqoqlar.

Minnadorman sizlardan,

Baxtli o'g'll-qizlardan.

(Yana savol beradi).

Unib, o'sgan joyingiz,

Qayer, qani, aytingiz?

O'quvchilar: O'zbekiston atalmish,

Ul mustaqil, go'zal yurt.

(Cho'x musiqa chalinib, qizaloqlar raqsga tushishadi).

O'qituvchi: Endi navbatni saboqlar; jarayonida o'rganganingiz — hadis maqol, tez aytishlarga beramiz.*(O'quvchilar navbat bilan so'zlashadi).*

Hadislar

-Jannat - onalar oyog'i ostidadir.

-Beshikdan to qabrgacha ilm izla.

-Bir soat ilm olmoq - bir kechalik ibodatdan afzalroqdir.

-Ota-onang — davlating.

Maqollar

-Kitob — bilim bulog'i, o'quvchining o'rtog'i.

-Odobli bola — elga manzur.

-Mehnat qilib topganing - qand asal totganing.

-Hunar — hunardan unar.

-Harakat — harakatda barakat.

Tez aytishlar

-Tez aytish, tez aytish, nutqimizni tuzatish.

-Bilol bilimli bolami, bilimli bo Bilolmi?

Lak, lak, elak, shu elakka un kera

«Alifbe»:

—Balli, jajji bolajonlar.

0'qituvchi: 0'ziga berib sayqal; harflar so'ylar galma-gal.

Siz o'qishga kirishing, sidqidildan tirishing.

Ixlos ila, albatta, bo'ling ibrat husnixatda.

(Harflar siyimosidagi bolalarga so'z navbati yetadi)

«0»

Ot yeldek chopib borar, Ortidan to'zon qolar.

«N»

Ninachixon ninachi, Nog'oraga o'yna-chi.

«A»

Ayiq asal yaladi, Asalari taladi.

«I»

Itim bor nomi — To'rt ko'z, Ikkalamiz inoq, do'st.

«M»

Moshvoy, nima yalaysan, Muzqaymoqqa qalaysan?

“T”

Tongda bajar ishingni, Tozalagin tishingni.

«L»

Laylak kelsa tulkivoy Likopchada berdi choy.

«B»

Baliq dedi: ey, baqa, Beraymi senga chaqa?

«K»

Ko'chadan o'tsang agar, Hushyor yurgin har mahal.

«R»

Rasmlarga qarab kuladi ko'zim, Rostin aytsam, rassomman o'zim.

«O'»

«O'» — unliman, cho'z biroz, Oqimoqqa oson, soz.

«D»

Men ham - undosh, bo'l o'rtoq, Dono so'zga sol quloq. **«U»**

«U» harfiman men — dono, Unliman xo'p serma'no.

«Y»

«Y» — undoshman, ko'nglim oq. Yolingiz bolsin porloq. **«E»**

«E» — unliman erkatoq, Ozbek tilim so'zga boy.

«G»

Guli, Gavhar, Gulnora, Gap talashdi ko'p bora.

«ng»

Birikmamiz ikkijon, Maqsad bir, bitta makon.

«S»

Sirli sandiq ochildi, Ichidan zar sochildi.

«H»

Hakka keldi hakkalab, Hay-hay, qo'ymang yakkalab. **«Sh»**

Shartim — yozgin uzmasdan, Shaklimni hech buzmasdan. **«P»**

Paxtayu tillaga kon,

Pillasi mashhur jahon.

«Q»

Qo'llaringa tutqazdi qalam, Muallimim menga bir olam. «Ch»

«Ch» — harfiman, men undosh,

Chuvalashgan ikki bosh.

«J»

Jo'ja va jibljibon, Juda-juda qadrdon.

«G'»

G'olib bol, hamisha g'olib yashagin. Ona vatan uchun, yonib yashagin.

«Z»

Zar qadrini zargar bilar, Zar bu — kitob, jon qadar.

«V»

Vatan — mening onamsan, Dunyoda yagonamsan.

«X»

Xalqimiz mustaqil, o'ziga bekdir,

Kamtarin, oqko'ngil, tanti o'zbekdir.

«F»

Fil fontanda cho'mildi, Faqat yarmi ko'mildi.

Tutuq belgisi:

Bilsang, tutuq (‘) belgiman, Kerak joyda meni yoz, Shunda bo'lar juda soz.

«**Alifbe**»: Barakalla, bolajonlar, savodingiz chiqib, juda ko'p narsalarni bilib olibsiz.

(O'g'il bolalar ijrosida raqs ijro etiladi).

O'qituvchi («Alifbe»ga qarab): «Alifbe»jon, endi navbatni kichkintoylar sahifasiga bersak. Oquvchilarimiz «Chol va bo'ri» ertagini sahnalashtirib kelishgan. Marhamat.

(Sahnada o'rmon manzarasi).

Bir o'quvchi ertakchi siyomosida: Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qadim o'tgan zamonda o'tinchi chol bo'lgan ekan. Bobo har kuni qir- adirlardan otin terib, kun ko'rar ekan. Bir kuni otin terib qaytayotsa, yo'lidan halloslab qochib kelayotgan bo'ri chiqib qolibdi.

Bo'ri: Bobo, meni qutqaring, ovchilar quvib kelishyapti.

Ertakchi bola: Chol juda rahmdil ekan.

Chol: Bo'rivoy, mana bu qopga tushib olaqol.

Chol qopini og'izini berkitibdi. Miltiq ushlagan ikkita ovchi kelibdi.

ovchi: Bobo, shu yerdan o'tgan bo'rini ko'rmadingizmi?

Chol: Yo'q, ko'zim tushmadi, qir tomonga qochgan bo'lsa kerak.

ovchi: Ketdik, o'sha tomonga.

Ovchilar ketganidan so'ng chol qopni ochib, bo'riga debdi: Bo'rivoy, chiq qol.

Bo'ri (qopdan chiqib): Men seni yeyman, qornim juda och.

Chol: Men senga yaxshilik qilib, qutqarib qolsamu yaxshiligim evaziga, yomonlik qilasanmi?

Bo'ri: Men yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytarilganini hech qayerda ko'rmadim.

Chol: Bo'rivoy, to'xta, kel biror jonzotdan yaxshilikka yaxshilikmi yoki yaxshilikka yomonlikmi, deya so'rab ko'ramiz.

Ular yo'lga tushishibdi. Yo'lidan do'mboqqina quyonchalar chiqibdi.

Bo'ri: Quyonchalar, menga aytinglar-chi, yaxshilikka yaxshilik qaytarganini ko'rganmisizlar?

Quyonchalar bo'ridan qo'rqib debdi: Bilmaymiz. Buni, yaxshisi tulkijondan so'rash kerak.

Ular tulkinining oldiga borishibdi.

Chol: Tulkivoy, bilasanmi, men bo'rivoyni ovchilardan qutqarib qoldim. Endi bo'lsa u meni yeymoqchi.

Tulki: Qanday qilib qutqarib qoldingiz?

Chol: Qopga solib yashirdim.

Tulki: Xa-xa-xa-xa. Ishonmayman, shunday katta bo'ri shu kichkina qopga sig'dimi?

Bo'ri: Ha, sig'dim.

Tulki: Unday bo'lsa, yana bir bor qopga tushib ko'r-chi.

Bo'ri qopga tushibdi.

Tulki: Bobo, qopning og'zini bog'lang. Yaxshilikni bilmaydigan bu yovuzni daryoga tashlang.

Chol: Rahmat senga, tulkijon.

Ertakchi bola: Chol tulkidan minnatdor bolibdi. Siz ham bolalar, hech qachon yaxshilikka yomonlik bilan javob qaytarmang. Aks holda bo'rining holiga tushasiz.

Qizlar ijrosida raqs namoyish etiladi.

"Alifbe": Barakalla, aziz bolalar! Bayram dasturingizni ko'rib, miriqib dam oldim.

Bolalar "Alifbe" bilan xayrlashadilar.

Hammamiz shod va xursand. Katta bayram biz uchun. Minnatdormiz, "Alifbe", Xayrlashamiz bugun.

Alifbe:

Jajjilarim, mening sizga

O'qish kitobi tuhfam.

Toza tuting xuddi menday,

Bilim oling mustahkam.

Davruga "o'qish kitobi" kirib keladi

. "O'qish kitobi":

Bilimdon bolajonlar,

Sizga dildan assalom!

Ilm olib charchamang,

Ilmla yorug'olam.

O'quvchilar:

Ey kitobim, oftobim.

Seni toza saqlaymiz.

A'lo o'qib hammamiz

Ishonchingni oqlaymiz.

"Alifbe" bolalar bilan xayriasha turib deydi:

Xayr, deyman baxt va shodlik,

Hamda tilab saodat.

Ulg'ayinglar, olim bolib,

Sizga yor bolsin omad!

Bilimlarning sirli-sirli,

Xazinasin ochinglar.

Johillikdan yiroq boling,

Yomonlikdan qochinglar.

O'quvchilar ham sevimli kitobi bilan xayrlashadilar.

O'qituvchi: Mana, bugu o'quvchilarimizning nechog savodxonligini ko'rdik. Endi esa davraga ota -onalarimizdan olti nafarini taklif etamiz. Ular quyidagi shart boyicha o'zaro bellashadilar: Ishtirokchilar o'zlariga berilgan sharlarni yorib ichidagi savollarga javob beradilar.

Savollar quyidagicha:

Qanday idishni sira to'ldirib bolmaydi?

Nega odam orqaga o'girilib qaraydi?

Nima ildiz otmay o'sadi?

Dengiz ostida qanday tosh bolmaydi?

Qo'g'irchog'im "Natasha" she'rini aytib bering.

5 xil musiqaga raqsga tushing.

Bellashuv g'olibi bo'lgan ota- onalarga sovg'alar beriladi.

Oqituvchi: Hurmatli ota-onalar hamda qadrlı mehmonlar, shu bilan bugungi bayram tantanamiz nihoyasiga yetdi. E'tiboringiz uchu rahmat, sog' va omon bo'ling.

Sho'x musiqa yangraydi, barcha raqsga tushadi va bayramga yakun yasaladi.